

PRETSEDENTLARNING FRAZEOLOGIZMLAR TARKIBIDA UCHRASHI*G. A'zamova¹**Annotatsiya:*

Bugungi kunda tilni lingvokulturologik jihatdan qiyosiy tadqiq qilish dolzarb masalalardan biri bo'lib, bunda pretsedent birliklar taxlili alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada pretsedent birliklarning frazeologizmlar tarkibida uchrashi va ularning tarjimasi haqida so'z borgan.

Kalit so'zlar: pretsedent hodisalar, lingvokulturologik aspekt, frazeologik birliklar, ekvivalentlik, tarjima.

doi: <https://doi.org/10.2024/Ot9jwn75>

Pretsedent - (lot. praecedens – oldingi, oldinda ketuvchi) — o'tmishda bo'lib o'tgan va hozirgi vaqtda ana shunday harakatlar qilish uchun namuna yoki asos bo'lib xizmat qiluvchi hol, ish, voqea. Masalan: sudning biror murakkab ish yuzasidan qarori sud pretsedent bo'lib xizmat qilishi mumkin; keyin shunga o'xshash ishlarni ko'rayotganda ana shu qarorga amal qilinadi [1]. S.L. Kushnerukning fikriga ko'ra, pretsedentlik tushunchasi ma'lum bir til madaniyati muloqotining milliy va madaniy o'ziga xosligi [2] bilan bog'liq bo'lgan intertekstuallik hodisasining bir qismi sifatida tushuniladi. Yu.N. Karaulovning so'zlariga ko'ra, pretsedent matn ma'lum bir shaxs uchun kognitiv va hissiy jihatdan ahamiyatli bo'lgan matn, g'ayritabiiy xususiyatga ega bo'lgan matn, ya'ni. ushbu shaxsning keng doirasiga, shu jumladan uning o'tmishdoshlari va zamondoshlariga yaxshi ma'lum, ushbu lingvistik shaxsning nutqida qaytaqayta yangilanadigan matn hisoblanadi [3]. Pretsedent matn deganda nutq va tafakkur faoliyatining to'liq va o'zini-o'zi ta'minlovchi mahsuli, (poli)predikativ birlik tushuniladi; komponentlari qiymatlari yig'indisi uning ma'nosiga teng bo'lmagan murakkab belgi; pretsedent matn milliy-madaniy hamjamiyatning har qanday o'rtacha a'zosiga yaxshi ma'lum; kognitiv asos uning aks ettirilishini o'z ichiga oladi.

Pretsedent birliklar nutqda tayyor bo'lgan voqea, hodisalar, mashhur yoki tarixda ma'lum faoliyati bilan iz qoldirgan shaxslarga, ularni ibratli so'zlariga nisbatan ishora tarzda qo'llaniluvchi birliklar tushuniladi. Hadislar, badiiy asarlar, ommaga ma'lum qo'shiq matnlari, reklamalar, mashhur iqtibosliklar pretsedent matn hisoblanadi.

Pretsedent birliklar orasida pretsedent matnlar muhim ahamiyatga ega. Y.N. Karaulov pretsedent matnlarga shunday ta'rif beradi: "Birdan ortiq shaxsga tegishli bo'lgan, ularning bilish va hissiy munosabatlarida u yoki bu shaxs uchun ahamiyatli bo'lgan, ya'ni mazkur shaxs bilan aloqador odamlarga juda yaxshi tanish bo'lgan va nihoyat, til egalari diskursida qayta-qayta murojaat qilinadigan matnlar "pretsedent matnlardir". Pretsedentlikni o'rqnash, uning turlari, struktur semantik xususiyatlarini tadqiq etish bugungi kunda tilshunoslar oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. Pretsedent birliklarni

¹A'zamova Gulnoza Abduxoliq qizi, SamDCHTI tayanch doktoranti

tadqiq etar ekanmiz, ularning frazeologizmlar tarkibida keng uchrashi guvohi bo'lishimiz mumkin. Frazeologizmlar tarkibida pretsedent antroponimlar, toponimlar qo'llanilishi tahlilini ko'rib chiqamiz:

Pretsedent shaxs nomlarining frazeologik birliklar tarkibida uchrashi:

- Être fier comme Artaban - Artabandek mag'rur bo'lmoq (burni ko'tarilgan ma'nosida) - Artaban - XVII asr Calpenèdening "Cléopâtre" asaridagi mag'rur qahramon ;

- Être tranquille comme Baptiste - Baptistedek tinch bo'lmoq (umuman tashvishlanmaydigan odamga nisbatan – Baptiste - fransuz komedeyalarida bir telbaga berilgan nom. Unga nisbatan berilgan zarbalar, kaltaklarni quvonchiga ko'maklashuvchi omil sifatida qabul qilgan.

- La femme de César ne doit pas être soupçonnée – Sezarning xotinidek shubhalardan xoli bo'lmoq kerak ;

- Rendre à César ce qui est à César – javobgarlikni aybdorni gardaniga yuklamoq (Sezarniki bo'lgan narsani Sezarga qaytaring kalka t.a.)

- Beau comme Apollon – c'est un vrai Apollon – Apollondek chiroyli - yunon mifologiyasidan olingan bo'lib, unda Zevsning o'g'li Apollon quyosh, aql, san'at, musiqa, she'riyat xudosi bo'lib, go'zallik ramzi sifatida til korpusida saqlangan, miflarga ko'ra u xudolarning eng go'zali bo'lib o'zining qaddi-qomati va tana tuzilishi tufayli ajralib turgan.

Pretsedent joy nomlarning frazeologik birliklar tarkibida kelishi:

- Ce n'est pas le Pérou – Ahamiyatsiz (bir chaqaga qimmat) - Le Pérou - ispan mifologiyasida oltin, boylikka to'la yer;

- Faire un travail d'Hercule - Qiyin, mashaqqatli ishni amalga oshirmoq - Hercule - fransuz mifologiyasida o'zining kuchli xarakteri bilan ajralib, kuch quvvat ramzi bo'lib qolgan;

- Faire du bruit dans Landerneau - Landerneau shovqinini qilmoq (arzimagan narsa uchun shov- shuv qilish) - Landerneau - Fransiyaning Bretan mintaqasida joylashgan kommunadir. Finistère departamenti Brest tumani tarkibiga kiradi. A.Duvalning "Les Héritiers" komediyasida bo'lib o'tgan kichik fitnadagi nutq orqali ommalashgan.

- Il tombe comme à Gravelotte - Chelaklab yomg'ir quyyapti - Gravelotte - 1870 yilgi nemis-fransuz qonli urushi shu hududda bo'lib o'tgan. Metaforik tarzda: mo'l-ko'l yog'ayotgan yomg'ir jangdagi ayovsiz zambarak to'plariga qiyoslangan.

- Être avare comme un Auvergnat - Overgnelikdek ziqna bo'lmoq - Auvergne - Fransiyaning markaziy qismidagi viloyat nomi. Tarixda Avergne dehqonlari o'zining yashash sharoitining yomonligi va qiyinligi bilan ajralib turgan, shuning uchun ham "ziqna" nomini olgan.

- Avoir un œil à Paris à Pointoise - Bir ko'zi Parijda bir ko'zi Pointoisida bo'lmoq (g'ilay bo'lmoq) - Pontoise - Fransiyaning Parij shahri shimoli-g'arbiy qismida joylashgan kommunadir. U Parijning markazidan 28,4 km uzoqlikda, Cergi-Pontuazaning "yangi shaharchasida" joylashgan.

Ma'lum tilda pretsedent birliklarni tadqiq qilish bevosita o'sha tilning lingvokulturologik aspektini o'rganish bilan chambarchas bog'liq. Pretsedentlar faqatgina og'zaki va yozma nutqda foydalaniladigan birlik bo'libgina qolmasdan, nutqning ta'sirchan va bo'yoqdor bo'lishini ta'minlovchi muhim omillardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1]. B.T.Ataxanov, M.B.Isabayev .*Fuqarolik jamiyati fanidan atamalar lug'ati* T.- 2016. -225b.

[2]. Кушнерук С.А. *Сопоставительное исследование прецедентных имен в российской и американской рекламе: дис. канд. филол. наук.* - Челябинск, 2006. -213 с.

[3]. Караулов Ю.Н. *Русский язык и языковая личность.* -М.: Издательство ЛКИ, 2010. -264 с